ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

ATOYINING “UL SANAMKIM” G‘AZALIDA BADIIY SAN’ATNING XILMA-XILLGI

Zilola Ortiqova

SamDChTI akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Atoyining g‘azallarining tili va ularda badiiy san’atning xilma-xilligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: A. Navoiy, “Majolisun-nafois” asari, Atoyi, g‘azal, sanam, pari, nozik, suv, tashbeh,litota, jannat, talmeh, istiora, qo‘l, toza, husni ta’lil, tardi aks, ko‘z, suv qizi, qosh, husn, yosin, kitobat, mehrob, yosin surasi, tanosib, tashbeh, tajnis

The diversity of artistic art in Atoi's ghazal "Ul sanamkim"

Zilola Ortikova

SamDChTI Academic Lyceum

Teacher of Native Language and Literature

Abstract: This article discusses the language of the poet Atoi's ghazals and the diversity of artistic art in them.

Keywords: A. Navoi, "Majolisun-nafois" work, Atoi, ghazal, smother, fairy, delicate, water, tashbeh, litota, paradise, talmeh, istiora, ash, clean, beautiful interpretation, late reflection, autumn, water girl, kosh, husn, yasin, kitabat, mihrab, yasin surah, tanosib, tashbeh, tajnis

Разнообразие художественного выражения отражено в газели Атойи «Ул санамким».

Зилола Ортикова

Академический лицей Самоходного политехнического института

Учитель родного языка и литературы

Аннотация: В статье рассматривается язык газелей поэта Атойи и многообразие художественного выражения в них.

Ключевые слова: А. Навои, произведение «Маджолисун-нафаис», Атой, газель, идол, фея, нежный, вода, метафора, литота, рай, талме, исиора, рука, чистый, красивая интерпретация, позднее размышление, глаз, девушка-водяная, бровь, красота, жасмин, книга, михраб, сура «Жасмин», таносиб, метафора, таджнис

Alisher Navoiy Atoyi haqida “Majolisun-nafois” asarida ma’lumot berib, Balxdan Ismoil ota farzandlaridan ekanligini aytib, uning “darveshvash, xushxulq, ochiq chehrali kishi” deydi.

Atoyi XV asr o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan lirik shoirdir. Atoyi uning adabiy taxallusi bo‘lib, aniq nomi bizga ma’lum emas. Atoyi lirikasining asosini g‘azallar tashkil etadi. G‘azallari asosan ramal vaznida yozilgan bo‘lib, tili sodda, tushunarli va o‘xshatishlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir g‘azallarining misralarini bir qancha she’riy san’atlar bilan badiiy bezak bergan. Ayniqsa, uning “Ul sanamkim” g‘azalini olib ko‘rsak:

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o‘lturur,

G‘oyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur matla’sida noziknihol yorni sanam deb atash bilan birgalikda, uni suv parisiga o‘xshatib, bu ikki so‘z orqali tanosib san’atini vujudga keltirilgan. Uning nozikligini esa o‘ta kichraytish litota san’ati bilan tasvirlagan.

To magarkim kim salsabil obina javloni qila,

Keldi jannat ravzasindin obi Kavsar sori hur.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Atoyi talqinida bog‘ ichidagi ariq bo‘yiga kelgan yor jannat bog‘idagi Kavsar suvi (hovuzi) yonidagi hur-u pari timsoli ekanligini ta’kidlash bilan istiora, talmeh san’atlarini vujudga keltirgan.

Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suda,
Balki suvni pok bo‘lsun deb iligi birla yur.

Shoir yorning qo‘lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo‘lini yuvib suvni tozalashi orqali tardi aks, ya’ni qarshilantirish san’atini vujudga keltirgan, shu bilan birga uning shunchalar chiroyli va ozodaligi husni ta’lil san’ati orqali shoirona dalillaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Emdi bildim rost ermish, balki ko‘rdim ko‘z bila,
Ulki derlar suv qizi goh-goh ko‘zga ko‘rinur.

Atoyi bu misralarida ham suv qizini tasvirlar ekan, xalqona tasavvurlar orqali tardi aksning go‘zal namunasi yaratilgan.

Qoshlaring yosin Atoyi ko‘rgali husn ichra toq,
Subhidam mehroblarda surayi yosin o‘qir.

Shoir g‘azal maqta’sida yorning qoshlarini arabcha yo harfiga tashbehlash orqali kitobat san’atini vujudga keltirgan. Yor husnini ko‘rish yosin surasini o‘qib ibodat qilish bilan tenglashtirib tanosib san’ati kashf qilingan. Ikki xil yosin so‘zini qo‘llash natijasida tajnis san’atining takrorlanmas jozibasini ochib bergan.

Atoyi g‘azallarini o‘qigan kishi o‘zbek tilining so‘z sehrini , uning jozibadorligini teran his etadi. Buning sababi esa shoir badiiy san’atlardan mohirona foydalanganligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Husanboyev Q. , Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi.-Toshkent, 2018.-352b.
2. To‘xliyev B. , Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun o‘quv dastur).-T.:O‘qituvchi, 2000.-288b.
3. To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. “Adabiyot” (majmua) Akademik litseylarning ikkinchi bosqichi uchun darslik.-“Bayoz”, 2016
4. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot 10-sinf I qism “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2017